



GENDER TENGLIKNI TA'MINLASHNING DOLZARBLIGI VA ISTIQBOLLARI:

O'zbekistonda gender tenglikni rivojlantirishdagi yutuqlar va duch kelinayotgan qiyinchiliklar.

Matyoqubov Matyoqub Markovich

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, "Xalqaro huquq" fakulteti,
1 - bosqich talabasi, matyoqub206@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatda gender masalasining kelib chiqishi, uning sabablari, ahamiyati va zaruratlari haqida so'z boradi. O'zbekistonda gender tengligining ta'minlanishining ayrim masalalari, xususan gender tengligi va ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, xususan, ayollarga qarorlar qabul qilishda ishtirok etish, oiladagi barcha insonlarga gender tengligi xaqida to'g'ri bilim berish, ya'ni oilada tarbiya olayotgan yosh farzandlar ongida, «jamiyatda erkak va ayollarning mavqeini tenglashtirish»ga oid bilim va dunyoqarashi hamda fikrlash madaniyatini shakllantirish bilan yondashuvning birinchi ko'pchilikni tashkil etishi haqida fikr bildiriladi.

Kalit so'zlar: Gender tengligi, jamiyat, siyosat, BMT – ayollar, gender tengligiga erishish strategiyasi, tarixiy transformatsiya, diskriminatsiya.

Annotation: This article discusses the emergence of gender issues in society, their causes, significance, and necessity. It examines certain aspects of ensuring gender equality in Uzbekistan, particularly the expansion of women's rights and opportunities, women's participation in decision-making processes, and educating all family members about gender equality. Special attention is given to instilling knowledge, worldview, and a culture of thinking related to "equalizing the status of men and women in society" in the minds of children being raised within the family.

Keywords: Gender equality, society, politics, UN Women, gender equality strategy, historical transformation, discrimination.

Аннотация: В данной статье рассматривается возникновение гендерной проблематики в обществе, её причины, значение и необходимость. Обсуждаются некоторые вопросы обеспечения гендерного равенства в Узбекистане, в частности, расширение прав и возможностей женщин, участие женщин в процессе принятия решений, а также правильное информирование всех членов семьи о гендерном равенстве. Особое внимание уделяется формированию у подрастающего поколения, воспитывающегося в





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



семье, знаний, мировоззрения и культуры мышления, связанных с равенством статуса мужчин и женщин в обществе.

Ключевые слова: Гендерное равенство, общество, политика, ООН — женщины, стратегия достижения гендерного равенства, историческая трансформация, дискrimинация.

Kirish:

Gender tengligi masalasiga yuzlanadigan bo‘lsak, avvalo, gender atamasiga izoh berib o‘tish joizdir. “Gender” so‘zi aslini olganda inglizcha so‘z bo‘lib, zot so‘zining tub ma’nosи va jinslar, jinslararo munosabatlarni anglatadigan tushuncha bo‘lib hisoblanadi. Jins tushunchasi ijtimoiy qurilma yoki holat sifatida, ya’ni fiziologik voqelikning asosi bo‘lgan ma’nolarni anglatadi. Biroq keying yillarda u ancha keng tushunchaga aylanib, deyarli barcha fanlarga taalluqli ijtimoiy voqelikni anglatmoqda. Ayollar va erkaklar o‘rtasidagi biologik tabiiy farqlar, ularning xatti –harakatlari, madaniy va ijtimoiy tavsiflarini aniqlash va yaxshiroq farqlash uchun “gender” atamasi qabul qilingan.

Qadimgi davrmadaniyatga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ayol kishiga faqat “ONA” va “XOTIN” sifatida qarashlar oldingi o‘ringa chiqib qolgan edi. Ularning jamiyatda ham, ta’limda ham o‘rni yo‘qed. Bu holat ayniqsa chekka hududlardagi ayollarning psixologiyasi va dunyo qarashlarini qoloq qilib yubordi. Bu esa o‘z navbatida, farzandlar tarbiyasiga anchayin kuchli ta’sir qildi. Sababi ayollar uyda ko‘p vaqtini bolalari bilan o‘tkazadi, bu esa farzandlariga ta’lim yoki ma’naviy tomonlama ozuqa berolmaganligigaamin bo‘lganmiz. Bashariyat onasi, Odam alayhissalomning jufti haloli, birinchi ayol bo‘lmish Havo onamiz Odam alayhissalomning qovurg’asidan paydo bo‘lgan. Qur’oni Karimda bu haqida aniq hech narsa aytilmagan bo‘lsada, hadisi shariflardan to‘liqroq ma’lumot topish mumkin. Imom Buxoriy Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Ayollarga (yaxshi) muomalada bo‘linglar, chunki ayol qovurg’adan yaratilgan. Qovurg’aning eng qiyshiq joyi uning yuqorisidir. Uni to‘g’irlashga urinsang, sindirib qo‘ysan, agar tashlab qo‘ysang, qiyshilgicha qolaveradi. Bas, ayollarga (yaxshi) muomalada bo‘linglar! Demak, shunday qilib, ayollarga bo‘lgan munosabat, gender tenglik masalalari qadimda rivoj topmagan va e’tibor qaratilmagan masalalardan biri bo‘lib kelgan. Dastlab Yevropadavujudga kelgan ma’rifatparvarlik g‘oyalar ta’siri ostida shakllangan inson tengligi va shaxs ustuvorligi haqidagi g‘oyalar ayollarga ham ta’sir o‘tkaza boshladи. Ular ham jamiyatda o‘z o‘rinlariga ega bo‘lish uchun kurasha





boshladilar. Shunday qilib, keyingi davrlarda Yevropada ayollar anchayin faol harakatda bo‘ldilar.

Biroq, Sharq haqida bunday deyish anchayin qiyin. Chunki, Sharq mamlakatlarida patriatzm tushunchalari ancha kuchli bo‘lgan. Ayollar deyarli jamiyatda ma’lum mavqega ega bo‘lishmagan. Xattoki, sharqda qizlar tug‘ulgan sanalarini belgilash ham joiz deb topilmagan.

Biroq bu bilan biz Sharqda nomi tarixga kirishga arzirli ayollar yo‘q ham deb ayta olmaymiz. Buyuk tariximizda shunday ayollar o‘tganki, ularning ko‘rsatgan jasoratlari va matonatlar sira erkaklarnikidan qolishmaydi. Misol uchun, o‘z xalqini himoyasi uchun yovlarga qarshi chiqqan, adolatli va oqila malika To‘maris tariximizdagi haqiqiy jasorat timsolidir. Bundan tashqari, Saroymulkxonimni ham keltirib o‘tishimiz mumkin. U bir tomondan, butun dunyoga dong‘i ketgan, buyuk sarkarda Amir Temurning rafiqasi va ikkinchi tomondan, davlat va jamiyat ishlarida arbob darajasiga yetgan, erkak siyosatchilar havas qilsa arziydigan dono va odil, tadbirkor ayoldir. U mamlakatda muhim o‘ringa ega bo‘lgan. Saroymulkxonimning asosan, me’morchilik va obodonchilik sohasidagi ishlariga urg‘u berib o‘tiladi. “...tarixiy asarlar tahlili Bibixonimning, eng avvalo, davlat, mamlakat, sulola ishlarida, tashqi siyosatda katta o‘rin tutganini isbotlaydi. Saroymulkxonim faoliyatining bir tomoni Amir Temur farzandlari va nabiralarining tarbiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan” [1]. Shu bilan bирgalikda, tarixda ilk tarixchi ayol sifatida nom qoldirgan, Boburiylar sulolasiga vakilasi Gulbadan beginni ham alohida ta’kidlab o‘tish joizdir. Uning “Humoyunnoma” asari uni butun dunyoga mashxur qila oldi.

II. Asosiy qism:

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligiga erishgandan keyin rivojlanishning, taraqiyotning yangi bosqichi boshlandi. Oilaga, xotin-qizlarga, bolalarga, farzanglarga bo‘lgan munosabat davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, hukumat qarorlari, Davlat dasturlari, xotin-qizlarning jamiyat rivojidagi faol ishtirokini ta‘minlash, gender tenglikka e’tibor qaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. So‘nggi paytlarda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida gender tengligi muammolarini muhokama qilish ommaviy tus oldi. Kasbiy, ijtimoiy va siyosiy faoliyatda ayollarga yoki erkaklarga nisbatan munosabatni bildirish zarurligiga hech kim shubha qilmaydi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvdagagi o‘rni tobora mustaxkamlanib bormoqda. Yangi parlamentimizda xotin deputatlarning soni ikki karra oshirildi. Globallashuv davrida xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini himoya qilish yanada dolzarb





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, xotin-qizlarning siyosiy jarayonlarda ishtiroki tobora ortib bormoqda va bu holatni saylov jarayonlarida ham kuzatish mumkin. BMTning 1952 yilgi Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi Konventsiyasida ayollar har qanday saylovlarda erkaklar bilan teng sharoitlarda, hech qanday kamsitishlarsiz ovoz berish, hamda saylanish huquqlariga ega ekanliklari belgilab qo'yilgan. Vakillik organlariga bo'lib o'tgan so'nggi saylov natijalari taqqoslanadigan bo'lsa, barcha partiyalar nomzodlarning kamida 30 foizi ayppardan iborat bo'lishi lozimligi haqidagi qonun talabini bajargan. Jumladan, partiyalar tomonidan ko'rsatilgan nomzodlarning 41 foizini ayol nomzodlar tashkil etgan. Ushbu holat YeXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi tomonidan ham ijobiy baholangan. [2]. O'zbekiston gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatida 2019-yildan boshlab qatnashishni boshladi. 2019-yil holati bo'yicha O'zbekistonning gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatdagi 189 mamlakat ichida 62-o'rinni egalladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg'armasi (UNFPA) ekspertlarining fikriga ko'ra, O'zbekistondagi har 100 000 dan 29 ayol gender tengsizlik tufayli vafot etishi va 15-19 yoshdagi har ming o'spirin qiz uchun tug'ish ko'rsatkichi 23,8 ni tashkil qiladi. Gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatda bo'yicha 62 - o'rinda O'zbekiston bilan bir qatorda Kosta-Rika va Urugvay ham 0,288 ko'rsatkichi bilan qayd etilgan. O'rta Osiyo davlatlari o'rtasida 44- o'rinda Qozog'iston, 82 - o'rinda Qirg'iziston, Tojikiston 70 - o'rinalarni egallahsgan, Turkmanistonda esa bu ro'yxatda hech qanday ma'lumot ko'rsatilmagan. O'zbekistonda 2019 – yil 2-sentabrda 562 - sonli O'zbekiston Respublikasi «Xotin qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni qabul qilingan. O'zbekistonda Gender tenglik bo'yicha Komissiya 2019-yildan boshlab ish yuritib keladi. Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Narbaeva O'zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasining raisi hisoblanadi.[3]. Bugungi kunga kelib O'zbekiston gender tengligini ta'minlashda sezilarli yutuqlarga erishdi. O'zbekiston gender tengligi va gender rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha ham yetakchi o'rinni egallaydi: ayollar uchun gender rivojlanish indeksi (GRI) erkaklarnikiga nisbatan 0,795 ni tashkil etadi, bu ayollar va erkaklar o'rtasidagi tenglik yuqori darajasini ko'rsatadi (gender rivojlanishning umumiy indeksi) -1006). [3] O'zbekistonda Milliy gender siyosati mafkurasi, bir tomondan, ayollar muammosini hal etishda umum-jahon demokratik tamoyillarning e'tiborga olingan ligi, ikkinchi tomondan esa, Sharqqa xos bo'lgan oila va jamiyatni birlashtirib turadigan, bolalar tarbiyasida katta ahamiyatga ega ayollarga ehtirom xususiyat-lari inobatga olinganligini ta'kidlash lozim.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OVALAR



Ma'lumki, O'zbekistonda 2030 yilga qadar gender tenglikka erishish strategiyasi qabul qilingan. Ushbu hujjatda 2030 yilgacha barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qaror qabul qilish bilan bog'liq barcha darajalarda ayollar to'liq va samarali ishtirok etishi va yetakchilik qilishi uchun teng imkoniyat yaratiladi. Bunda turli darajalarda Davlat dasturlari qabul qilinishi jarayonida gender tenglik tamoyiliga amal qilinishi masalasi ham e'tibordan chetda qolmagan.

III. Xulosa:

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Gender tenglik masalasi bugungi kunda nafaqat milliy darajada, balki global miqyosda ham dolzarb masalalardan biri bo'lib, uning ahamiyati tobora oshib bormoqda. O'zbekiston gender tenglikni ta'minlash bo'yicha o'ziga xos yondashuvni ishlab chiqqan va bu borada xalqaro miqyosda sezilarli qadamlar qo'ymoqda. Ushbu masala nafaqat inson huquqlarini himoya qilish, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy va siyosiy islohotlarni samarali amalgaga oshirish uchun ham asosiy omillardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda gender tenglikni mustahkamlashga qaratilgan qonunchilik bazasi yaratilgan bo'lib, bu davlatimizning BMT tomonidan belgilangan xalqaro standartlarga muvofiqligini namoyon etadi. Xususan, 2019-yilda qabul qilingan "Ayollar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonun O'zbekistonda gender tenglikka erishish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Ushbu qonun ayollarni iqtisodiy va siyosiy hayotda faol ishtirok etishga undash bilan bir qatorda, ularning qarorlar qabul qilish jarayonlarida faol bo'lishini ta'minlashni ham ko'zda tutadi. O'zbekiston BMTning "Ayollar - 2030 yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlari" doirasidagi global dasturlarida faol ishtirok etib, o'zining xalqaro maydondagi pozitsiyasini mustahkamamoqda. Shu bilan birga, respublikamizda gender tenglikni ta'minlashga oid strategiyalar ishlab chiqilmoqda. Bu strategiyalar ayollar huquqlarini kengaytirish, ularga yetarli imkoniyatlar yaratish, jamiyatda va oilada erkaklar va ayollar o'rtasida teng huquqlilik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan. Gender tenglikka erishishning muhim jihatni bu oilada va jamiyatda bu borada to'g'ri tarbiya va bilim berishdan boshlanadi. O'zbekistonda farzandlar ongida "erkak va ayol jamiyatda teng huquqli" degan tushunchani singdirish uchun ta'lim tizimida ham keng ko'lamli ishlar amalgaga oshirilmoqda. Shuningdek, BMT ko'magida olib borilayotgan dasturlar ham mamlakatda bu boradagi ijobiy o'zgarishlarni tezlashtirishda muhim o'rin tutmoqda. O'zbekiston gender tenglikni ta'minlash yo'lida milliy manfaatlarni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirib, jamiyatning barcha qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratishga intilmoqda.





Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azamat Ziyo, O‘zbek ayollari tarix sahnasida, Toshkent O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” –2002 23 –b.
2. O‘zbekiston gender tengligi va gender rivojlanishning asosiy ko’rsatkichlari. N.R.Annayeva –Mustaqil tadqiqotchiurganch davlat universiteti. Ilim həm jəmiyet. 2022.
3. <https://www.namstat.uz/uz/qo-mita-yangiliklar/9005-senatda-gender-statistikasi-bo-yicha-taqdimot-qilindi>
4. O‘zbekiston Respublikasining “Ayollar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019 yil, 12–15-betlar.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning gender tenglikka oid qarorlari va farmonlari, “Xalq so‘zi” gazetasining 2021 yilgi sonlari, 34–38-betlar.
6. BMTning “2030 yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlari” doirasidagi gender tenglik strategiyalari, UN Women tomonidan taqdim etilgan materiallar, 45–52-betlar.
7. O‘zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha Milliy komissiyasining hisobotlari va statistik ma’lumotlari, 2023 yil, 18–22-betlar.
8. BMTning “Ayollar - 2030” dasturi materiallari, 2020 yilgi tahliliy hisobot, 67–72-betlar.
9. Gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha xalqaro tashkilotlar – UN Women va UNDP chop etgan ma’lumotlar, 98–104-betlar.
10. Iskandarova Z., “O‘zbekistonda gender tenglikning ijtimoiy-siyosiy asoslari”, Toshkent, 2022 yil, 34–40-betlar.
11. Nazarov D., “O‘zbekiston jamiyatida ayollarning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish”, Ilmiy maqola, 2021 yil, 12–18-betlar.
12. “Gender tenglik va ijtimoiy barqarorlik: O‘zbekiston tajribasi” xalqaro konferensiyasi materiallari, Toshkent, 2023 yil, 56–63-betlar.
13. Jahon bankining gender tenglik bo‘yicha global hisobotlari, 2022 yilgi nashr, 83–89-betlar.

